

CHIN SO‘Z – MO‘TABAR, YAXSHI SO‘Z – MUXTASAR

“Sharq yulduzi” jurnalining 2023-yil 2-yarmi (7, 8, 9, 10, 11, 12-sonlari)da nashr qilingan hikoyalar tahlili bo‘yicha obzor maqola

Xayriyeva Nargiza Ixtiyor qizi

Buxoro davlat universiteti

2-bosqich magistranti

Qisqalik – donolik belgisi. Badiiy adabiyotdagi turfa janrlar o‘z shakl-shamoyili va mazmun-mohiyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Xususan, nasrda romanlarning qissa va hikoyadan farqli yoki o‘xshash jihatlarini nazarda tutsak, bugungi tahlil manbamizda e’tiborli jihatlar ko‘zga tashlanadi. Chunonchi, mavzu doirasida hikoyalarning g‘oyaviy-badiiy tahlili, ijodkor mahorati, uslub masalasi, tajriba va ko‘nikmalar, an`anaviylik va novatorlik kabi jihatlar tahlilga tortiladi. Hikoyalarda qalamga olingan mavzular, ko‘tarilgan g‘oyalar qisqalikda ko‘p ma’no mujassamligiga asos bo‘ladi. Zero, mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy ta‘kidlaganidek, “Chin so‘z – mo‘tabar, yaxshi so‘z – muxtasar”.

Sodiqjon Inoyatovning “**So‘nggi o‘q**” (Sharq yulduzi, № 7, 2023. – B. 35-42) da bevosa “qizillar” bosqiniga qarshilik harakatlarini hikoya qiladi. Ushbu tarixiy mavzudagi hikoyani o‘qib, Shukur Xolmirzayevning “Qora kamar” pyesasi voqealari ko‘z oldingizda gavdalanadi. Pyesadagi bosqinchiliklar sabab nochor xalq ahvoli yanada og‘irlashadi, mard yigitlarning ayanchli taqdiri takrorlangandek bo‘ladi. Gurlan atrofidagi urush harakatlari, qonli to‘qnashuvlar sabab ko‘plab aholi vakillari, vatanparvar askarlar umrini erta xazon qilgani, beva ayollar, yetim bolalar, boy berilayotgan erk, millat mustaqilligi masalasi to‘g‘risida kuyunib so‘zlanadi. Bosqinchilarga qarshi janglarda Sa’dulla qo‘rboshi, Matmurod ponsod kabi erksevar, yurtparvar erkaklarning fidoiyligi XX asr boshidagi “qizillar imperiyasi” bosqiniga qarshi munosib javob bo‘ldi. Ammo hikoya yakunida qo‘rboshining o‘limi, safdoshlar halokati yuz bersa-da,

xalq tinchligi va erki uchun jon fido qilishga shay mardlar safi tugadi degani emas edi. Bu kurash abadulabad davom etajak.

Navqiron Buxoro farzandi, “Dard mavsumi”, “Ko‘zlardagi ko‘zgu”, “Oykokil”, “Saragul” hikoyalari to‘plami muallifi Maxmud Rajab qalamiga mansub “**Saragul**” hikoyasida (Sharq yulduzi, №7, 2023. – B. 128-133) go‘zal insoniy tuyg‘ular tarannumini ko‘ramiz.

Hikoya muallif tilidan bayon qilinadi. Asarda Mo‘mmitoi ismli tengdoshlaridan aqliy jihatdan biroz ortda qolgan ishlari kattalarnikiday, ammo so‘zlar yosh bolalardek; aslida katta, ammo kichik yigitcha haqida hamda uning erishilmagan muhabbatи egasi Saragul haqida so‘z boradi. Hikoya oxirida bir jumboqqa duch kelasiz. Saragul aslida “qariqiz” maqomida tasvirlanadi. Yoshi Mo‘mmitoyning akasidan 4-5 yosh katta, demak, Mo‘mmitoydan ham ancha yoshi ulug‘. Ammo ular bir-birlarini o‘zlar sezmagan holda yoqtirib qolishgandi. Saragul-ku, buni fahm etar, ammo Mo‘mmitoy bolalarcha o‘ylovleri orasida buni idrok etolmas, ammo Saragulga o‘zgacha nigoh-la boqar edi. Taqdir taqozosi bilan Saragulni xotini o‘lgan fermerga uzatishadi. Bu orada Saragul kasallanib qoladi, hatto to‘yi kuni ham tobi bo‘lmaydi. Mo‘mmitoy Saraguldan ayrilish onlarida ko‘p dard chekadi, o‘zini har ko‘yga soladi, yig‘laydi... avval dushman sanagan o‘rtoqlari-yu, qo‘ni-qo‘shni, hatto begonalar ham unga achinishadi. Xullas, oradan yillar o‘tadi. Saragul eridan ajrab, bir o‘g‘li bilan qishloqqa qaytadi. Bu paytda Mo‘mmitoy vafot etgan edi. O‘lim sababi esa aytilmagan. Balki Saraguldan ayrilish Mo‘mmitoyning tanasini ruhi kabi majruh qilgandir. Saragul onasidan yetim qolgan qiz edi. Otasi birin-ketin qizlarini uzatib, o‘zi ham uylanib, bu yerlik bo‘limgan xotinining uyiga ravona bo‘lgan, uyini esa sotib ketgan edi. Saragul Mo‘mmitoylaning uyiga boradi va shu yerda yashab qolmoqchiliginı aytadi. O‘g‘lining qayeridir Mo‘mitoyga o‘xshatiladi. Bundan Mo‘mmitoyning ota-onasi quvonishib, “Mo‘mmitoym” deya bolani suyib erkalashadi. Shunda o‘ylaysizki, bu bola Mo‘mmitoynikimi? Hikoyada bu kitobxon hukmiga havola qilingan. Umuman olganda, hikoya hayotda uchrab turadigan real voqealar asosiga qurilgan bo‘lishi mumkin. Lekin ayrim o‘rinlarda

mantiqiy izchillik buzilgan. Bu Mo'mmitoy va Saragul oralaridagi farqlar, hikoya so'ngidagi noaniq yechimlarda ko'rindi.

Zulfiyaxonim qizlaridan biri Ma'mura To'rayeva yoshlik shijoati va zavqi, ayollarga xos his-tuyg'ular tarannumi hosilasi sifatida yozgan "**Ro'mol'**" (Sharq yulduzi, №7, 2023. – B. 152-153) hikoyasida yakka o'g'li (Toshpo'lat)ni bir ko'zlab ulg'aytirgan oddiy, kamtarin; ranglari uniiqsan ko'y lagi-yu yillar osha ko'rki ni yo'qotgan ro'molini boshidan tashlamaydigan o'zbek onalarining umumiy ko'rinishi tasvirlangan. U yolg'iz farzandini oliy ma'lumotli bo'lishini istadi. Toshpo'lat ham bir yildayoq onasining ishonchini oqlab qishloqqa yorug' yuz bilan qaytdi. Onasi uchun bozorlik qilishga unnadi. Voldasi uchun stipendiyasidan bir kiyimlik atlas va yangi ro'mol sotib oldi. Uyga kelgach onasining eski ro'molini olov yonib turga o'choqqa tashladi. Onasi ro'molni ko'rib shunday faryod urib yig'ladiki, bu yig'i farzandini uzoq vaqt dan so'ng ko'rgandagi yig'iga sira o'xshamasdi. Onaga yangi ro'mol-u atlasning qizig'i qolmagan, chunki yonayotgan ro'mol eridan, Toshpo'latning otasidan yolg'iz yodgor edi. Afsus, Toshpo'lat shuni avvalroq bilganda edi, onasining ko'nglini bunday ranjitmagan bo'lar edi. Hikoyada hayotiy mavzulardan sadoqat, umid, ilinj, mehr-muhabbat –barchasi mujassam. Faqat shularni anglaydigan dil, ko'ngil kerak.

Buxoroyi Sharif dilbandi Shodmon Sulaymonning "**Safar'**" (Sharq yulduzi, №8, 2023. – B. 63-69) hikoyasi bevosita bolalik xotiralari bilan bog'liq tarzda voqealar silsilasidan iborat. Ijodkor oilasida uch o'g'il bo'lib, aka-ukalar uch og'a-ini botir kabi hayotga kirib borgani, jo'shqin yoshlik yillari to'g'risida sof, samimiy so'zlaydi. Bu dunyo sinovlarga to'laligi anglashiladi; boqiy dunyo tayyorgarligi uchun yo'lga chiqqan, safarga otlangan inson tasviri yetakchilik qiladi. Bu safar nafaqat, haqiqiy yo'l safari, balki foni yunyodagi sayr-sayohat va boqiy hayot tadorigi tarzida talqin qilinadi.

"Olov raqsi" (Sharq yulduzi, №8, 2023. – B. 128-131). Zomin seminari qatnashchisi Mohira Eshpo'latovaning ushbu hikoyasi kema halokatiga uchrab xotirasi yo'qolib notanish joylarga kelib qolgan qiz erki, tutqunlikdagi

hashamatga to‘la hayoti o‘rniga kelgan oddiy turmush tarzidan so‘zlaydi. O‘ziga umuman begona joy va notanish insonlarga yo‘liqqan qiz uni topib olgan beka tomonidan Gulkeldi deb nomlandi. Qiz hech narsani eslolmasdi. U o‘zi tushib qolgan muhitda avvaliga begonasiradi, ammo keyinchalik qadrdonlariga aylanib qolgan odamlar to‘dasiga ko‘nikib ketdi. Ularning har narsaga sig‘inib allaqanday duo o‘qishlariga ham, baliqchilikdan but bo‘layotgan ro‘zg‘origa ham o‘rganib qoldi. Bekasi va uning eri, bolalarga, qo‘shnilarga, yerrang it, dengiz sohili, oy uning qadrdoniga aylandi. Ammo bir kun “Hosil bayrami” chog‘ida yangrayotgan kuy va chiroyli raqlar o‘tmishini biroz eslatib yubordi. Keyinchalik bozordagi ashyolar, taqinchoq va qo‘ng‘iroqchalar uni bir paytlar saroyning eng old raqqosasi, hukmdorning sevimlisi bo‘lganini, bazmlarda go‘zal raqlari bilan hammani shaydo qilganini yodiga soldi. Gulkeldi quvonmadid. Aslida qachon xotirasi qaytishi-yu ismi, nasl-nasabi, yaqinlari, vatani haqida tinmay o‘ylardi-yu, lekin eslolmasdi. Bugun angladiki, tutqunlikdagi hayotdan qutqargan o‘sha kema halokati unga eng bebaho boyligini – erkini qaytargan ekan. Shunday kunlarning birida uni qidirib soqchisi – saroy jangchisi keldi. Gulkeldi u bilan ketishni xohlamadi. Avvalgi qul raqqosa endi yo‘qligi, agar majburlasa, o‘limi bo‘ynidaligini aytdi. Shunday qilib, Gulkeldi boylik, maishat to‘la umrni emas, oddiy, ammo erki o‘zida bo‘lgan hayotda yashashni tanladi.

Hikoyaning “Olov raqsi” deya nomlanishi “Hosil bayrami”da kishilar olov atrofida antiqa harakatlar qilib o‘ynashgani, Gulkeldi ham olov atrofida raqs tushib, xotirasi biroz qaytgandek bo‘lgani bilan bog‘liq. Hikoya o‘qishli, voqealar rivojida kitobxonni qiziqtira oladigan tarzda yozilgan. Biroq so‘z qo‘llashda ayrim kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Xususan, “...hatto itlar tunda bu go‘zal, tinch, sohil bo‘yidagi qishloqda uxlashardi” [128]. Yuqoridagi jumlada qishloqning ikki xil xususiyatni bildirgan sifati (belgisi)dan so‘ng vergul qo‘yilgan, ya’ni go‘zal va sohil bo‘yidagi kabi aniqlovchi vazifasini o‘tagan belgilar orasida vergul shart emas. Yana bir o‘rinda “...Kuya mos odamlar bir doiraga zanjirdek tizilib, raqs tusha boshlashdi” [129] jumlesi “...Odamlar bir doiraga zanjirdek tizilib, kuya mos raqs tusha boshlashdi” deyilsa, to‘g‘riroq

bo‘lardi. Bu kabi kichik kamchiliklar har bir ijodkor repertuarida uchrab turadi. Tajriba, bilim va mahorat oshgani sari kamchiliklar bartaraf etib borilaveradi.

Shahodat Ulug‘ning ikki hikoyadan iborat “**Har kim hayotini yashasin**” hamda “**Buyuk yolg‘izlik**” (Sharq yulduzi, №9, 2023. – B. 9-14) kabi hikoyalari ayol tilidan hikoya qilinadi. Bosh qahramon ayol tanishi Emiliga yozgan maktubi bilan boshlangan hikoya ayolning ichki tug‘yonlari, quvonch-u dardlari bilan qo‘silib o‘zgacha ruh ifoda etiladi. U turmush o‘rtog‘i Nurxon hamda o‘g‘illari Abdulqayum va Shamshodjonlar haqida so‘zlar ekan, yoshligini, otasi bilan o‘tgan shirin damlarini eslaydi. Ayol dugonasi Emiliga taskin beradi, uni yashashga, hech kimni yomon ko‘rmaslikka undaydi. Hikoya yozayotgani va uni yakunlashi bilan unga ham jo‘natishini aytadi. Ikkinchи hikoyada esa Keyt Kayzer haqidagi xotiralar yodga olinadi. Keyingi qismlarda so‘zlovchiga sevimli bo‘lib qolgan Imqol momo, yoshligi o‘tgan Bo‘diq guzari haqida xotiralar mavjud. Shuningdek, atrofida insonlar ko‘p bo‘lsa-da, yolg‘izlikda kechayotgan umri haqida mulohaza yuiritadi. O‘zining Amsterdam, Manxetton, Niderlandiyadagi hayoti, tushuniksiz his-tuyg‘ulari to‘g‘risida o‘y va xayollarga cho‘madi. Inson hayotining o‘tkinchi havasdan iboratligi, aslida hammamiz “buyuk yolg‘izlik” iskanjasida yashayotganimizga ishoralar qiladi. Darhaqiqat, biz gavjum joyda yolg‘iz, yolg‘izlikda esa bag‘ri butundekmiz go‘yo. Hikoyada shun kabi hayotiy kechinmalar ma‘nisizlikda ma‘no izlash aspektida yechim tomon harakatlanadi. Hikoya ulangan syujet asosida yaratilmagan, biroz tushunish qiyin holatlar aks etgan o‘rinlar ham mavjud. Umuman olganda, bu hayot – o‘qib bo‘lmas yoki o‘qish qiyin bo‘lgan kitobdir.

“Yashash oson emas”, “Muhabbat mavsumi” kabi hikoyalar to‘plami muallifi Mehriniso Qurbonovaning “**Bir ko‘rsaydim senginani**” (Sharq yulduzi, №9, 2023. – B. 112-114) nomli mo‘jaz hikoyasi muallifning o‘zi haqida. Asar bosh qahramoni ham ayol, muallif singari kasb-kori va Mehrijon ismi bor. U ish bilan bo‘lib qadrdonlari, yaqinlari oldiga kamdan-kam keladigan ish odami. Mehrijon o‘z farzandlari-yu tashvishlari bilan bo‘lib uzoq qarindoshlaridan yiroqlashgan ayol sifatida tasvirlanadi. O‘tgan yili ko‘rgani oshiqqan ammasi

Qumri aya vafotini eshitadi, endi mehrli-oqibatli bo‘lishga qaror qiladi. Qarib qolgan Hidoyat xolasini bir nazar ko‘rmoqqa intiladi, ammo o‘g‘li sim qoqib nevarasining tobi yo‘qligi sabab tezroq shaharga qaytishi kerakligini aytadi. Mehrijon yana shaharga qarab yo‘l oladi. Tashvishlardan tinib singlisiga onasini so‘roqlamoq uchun qo‘ng‘iroq qilganda Hidoyat xolasining ham vafot etganini eshitadi. Diydor qiyomatga qoladi.

Insonlar shunday: turli sabab – ish, o‘qish, tirikchilik, yana turli vaj-korsonlar bilan vaqt va pul ortidan quvib yuraveradilar. Umr esa o‘tkinchi, buni kech anglaydilar. Yaqinlari diydori ham g‘animat ekanligi so‘nggi damda yodlariga keladi.

Yana bir ayol ijodkor Lobarxon Rustamovaning **“Jo‘natilmagan maktub”** (Sharq yulduzi, №9, 2023. – B. 115-116) hikoyasida yigitlik burchini o‘tayotgan Mohirjon, unga onasi nomidan xat yozib beradigan Gulchehra, o‘g‘li xizmat vazifasi tugashiga to‘rt oy qolganda yolg‘izginasini ko‘rolmay vafot etgan Mahpirat xola obrazlari mavjud. O‘g‘li chegarada turgani sababli xayoli bo‘linmasligini istagan Mahpirat aya o‘z nomidan o‘g‘liga xat yozishda davom etishini Gulchehradan iltimos qilib, dunyodan o‘tadi. Gulchehra har safar haqiqatni yozmoqqa chog‘lanadi, bor gapni aytib xatlar bitadi, ammo vasiyatni yerda qoldirolmaydi. Maktubni cho‘ntagiga soladi-da, Mahpirat aya bo‘lib o‘g‘li Mohirjonga yana xatlar yozishda davom etaveradi. Nihoyat Mohirjon askarlikdan qaytadi. Onasi o‘rniga uning qabrini quchoqlab yuragi vayron bo‘ladi. Bu paytda Mohirjonning suygan qizi Malika ham allaqachon sinfdosh do‘sti Akramga turmushga chiqqan edi. Ikki zarba Mohirjonning qalbini yaralaydi. Ammo Gulchehraning xatlar uchun uzr so‘ragani va Mohirjonning undan xafa emasligi, so‘nggi kunlarida onasining yonida bo‘lganidan minnatdor ekanligini aytganda ikki yosh ko‘ngil rishtalarini ipsiz bog‘lab qo‘ygan nigohlar to‘qnashuvi sizning ham yurak torlaringiznni chertishi shubhasiz.

Hikoyachilikda ildam odimlayotgan, yoshlarning sevimli nosiriga aylanayotgan Nodirabegim Ibrohimovaning **“Chorshanba uchun ko‘ylak”** (Sharq yulduzi, №9, 2023. – B. 134-137) hikoyasida g‘arb nafasi sezilib turibdi.

Modern adabiyoti ko‘rinishlari ham mujassam. Hikoya muallif tilidan bayon qilinadi. Unda ko‘pincha bosh qahramon yolg‘iz ayol, uning o‘y-kechinmalari, dard-u quvonchlari tasvirlanadi. Jamiyat, insonlardagi kamchilik va illatlar tanqid ostiga olinadi. Yolg‘izlikda kechadigan kunlarning birida ayol chorshanba kuni bir erkakni bekatda uchratib qoladi. Ayol poyezd bekatida sharbat tayyorlab sotardi. Shu-shu erkak har hafta chorshanbada ayolning yoniga kelar, sharbat ichib suhbatlashishar, sayr qilishar; dunyoda ulardan boshqa baxtli juftlik yo‘qday edi go‘yo. Ammo kunlarning birida ayni chorshanba kuni erkak kelmadi. Bu holat haftalar, oylar bo‘yi davom etdi. Ayol ko‘p kutdi va nihoyat bir kun erkakka biror kor-hol bo‘lmadimikin, deya qidirmoqqa otlandi. Ayol shaharga bormaslikka qaror qilgandi, ammo ko‘ngil ishi uni topmoqqa chog‘ladi. U shaharga otlandi, duch kelgan kimsadan mazili, ish joyi, hatto ismuniyam bilmaydigan kishini so‘rab-surishtiraverdi. Shaharliklar unga goh hayron, goh achinib, goh zarda bilan qarashar, siltashar yoki ustidan kulishar edi. Shunday kunlarning birida u aldandi. “Men taniyman, seni oldiga olib boraman” degan aldovlarga ishonib ikki erkak tuzog‘iga tushib xo‘rlandi. U butunlay sovub ketdi, hech kimni izlamay qo‘ydi. Ish ham topdi, ijarada zo‘rg‘a kun kechirdi, hatto topayotgan arzimas pulini o‘g‘irlatib qo‘ydi. Va nihoyat bir kuni erkakni uchratdi, kuzatdi. Poyezdda uzoqdan qarab bordi, ammo... manzilga yetay deganda erkakning boshqa bir ayol tomon borayotganini ko‘rib butun umidi ko‘kka uchganini fahmladi... U endi na shaharda, na qishloqda yasholmasligini anglatdi.

Hikoyada qahramonlar ismi keltirilmagan. Menimcha, bu vafosiz, aldamchi erkaklarning, nafs, hoy-u havasning umumiy obrazi. Ayol esa shu yolg‘onlar girdobiga tushib qolgan ojizalarning umumiy ko‘rinishidir.

Halim Karimning **“Yulduzlar chiqmagan kecha”** (Sharq yulduzi, №9, 2023. – B. 169-171) hajviy hikoyasida esa Nozimjon ismli hayotda, ishda, ro‘zg‘orda ham omadi yurishmagan yigit haqida, uming o‘y-xayollari, hayotga, jamiyatga bo‘lgan munosabati to‘g‘risida hikoya qilinadi. U avvalari xushomadgo‘ylik, laganbardorlik,adolatsizliklardan xazar qilar, keyinchalik esa bu kabi “kichik qoidabuzarliklar”ga o‘rganib ketgan ko‘nikuvchilardan biriga

aylandi. Hafsalasiz yashadi, sevmay uylandi, hayotni sevmadi, oilasi, farzandlari, tushunadigan ayoli bo'lsa-da, negadir o'zini doimo yolg'iz sezadi. Xuddiki, Nozimjon bu dunyoga begonadek. Ishdan qaytayotganda tiqilinch, tartibsiz avtobusdagi janjal yashayotgan hayotining qanchalar be'mani va qadrsiz ekanligini yana bir bor anglatgandek bo'ldi. Hikoyada Nozimjon umidsizlangan inson ko'rinishida ko'z oldingizda gavdalanadi. Aslida bu hajviy emas, ko'proq fofjaviy hikoyaga mos keladi.

Mustaqillik davri nasrida yangicha mazmun va shakldagi hikoyalari bilan barchga birdek tanish bo'lган Abduqayum Yo'ldoshevning "**Karomat**" (Sharq yulduzi, №10, 2023. – B. 19-31) hikoyasi o'tkinchi dunyoning hoy-u havasi bilan ovora laganbardor kimsalarning arzimas deb sanashgan xatosi Karomat ismli bir nomusli ayol o'limiga sabab bo'ldi. Qahvaxonaga boshliqlariga "haq berish" bahonasida kelgan kasbdoshlar ofitsiant ayolni "dag'al" muamalasi boshliqqa yoqmagani uchun qahvaxona rahbariga shikoyat qilishadi. Jonuzoqov ismli manfur, ikkiyuzlamachi yana bir boshliq "pushti panohini" nazariga tushish uchun shu ofitsiantni boshlig'i ko'nglini xushlashi uchun majburlaydi. Ammo ayol moddiy tangligi sezilib turgan, eri ikki yildan beri chet elda dom-daraksiz bo'lsa-da ikki farzandi sabab halol mehnat qilayotganini aytib yolvoradi. Bu harom ishga bosh qo'shgandan o'limni afzal ko'radi va o'zini suvgaga tashlab halok qiladi.

Hikoyada Tohir Malik uslubiga xos ochiqlik, yoqa ushslashga, o'ylashga majbur qiladigan syujet hamda Said Ahmadga ijodidagi kabi kichik bir hayotiy masala katta bir muammoga, tuzatib bo'lmas xatolarga sabab bo'lishi mumkinligi kabi elementlar ko'zga tashlanadi. Hikoyada haqiqiy muslima o'zbek ayolining har qanday erkakka ibrat qilib ko'rsatsa arziydigan pok nomusi, mardligi har qanday zamonda ayol, ona deb atalmish mo'jizaning qiymatini hamisha yuksakdaligini isbotlab turadi.

"Omonat dunyo", "Qantar ovgan kunlarda" kabi asarlar muallifi Abdulla Boboyorovning "**Musavvir**" (Sharq yulduzi, №10, 2023. – B. 76-87) hikoyasi butun umrini suratlarga, musavvirlikka bag'ishlab yagona muhabbati sabab yolg'izlikda faqat rasm chizib o'tkazgan musavvir Murod Do'st va uning ilk

sevgisi Dilorom haqida. Musavvirlikka birdek qiziqadigan ikki yosh ana shu san'at asarlari sabab tanishib qolishdi. Murod har safar Diloromni suratini chizardi, endi yakunlay deganda nimadir qilib: yo yirtib, yo bo'yoq chaplab, yo suv to'kib sevgilisi rasmini qayta-qayta chizaverardi. Shunday kunlarning birida kasb taqozosi bilan Dilorom Parijga, san'at ko'rgazmasiga borayotganini va bir yilcha qolishini aytdi. Har ikkisi ham bir-birini kutishga va'dalashishadi. Ammo bir muddat o'tib telefondagi suhbatlar tinadi va qisqa xabar keladi. Anglashildiki, Dilorom endi qaytmaydi. Avvaliga besh yil suvday oqib o'tdi. Murod yurak xastaligiga uchrab oradan yana ikki yil o'tdi. Shifokorlar operatsiya boshqa davlatda katta mablag' evaziga qilinishini aytishdi. Ammo musavvirda rasm chizadigan kichkina xonasidan, qadrdon suratlari, ayniqsa, Diloromining betakror portretidan boshqa boyligi yo'q edi. U yolg'iz edi; taqdirga tan berib o'limini kutib, Diloromi rasmiga qarab kun kechirdi. Vaholanki, u kichkina odam emasdi. Taniqli musavvirning rasmlari ham yirik ko'rgazmalar to'rida edi. Ammo u Diloromisiz yashashni istmasdi. Fransiyadan bir mehmon, ya'ni Diloromning fransuz eri kelib suratlarni ko'rib lol qoldi. U Fransiyadagi Luvr muzeyi prezidentining savdo bo'yicha o'rinosari, Dilorom esa sharq bo'limi rahbari ekanligi ma'lum qildi. Murodga pul kerakligini bu muammoni hal qila olishi unga barcha suratlari uchun ortig'i bilan pul to'lashini fransuzcha-o'zbekcha qo'shib so'zлади. Ayniqsa, Dilorom surati uchun million dollar berishini aytdi. Lekin Murod hech qachon suratlarini, ayniqsa, qadrdon "Dilorom"ini sotmasligini bir necha bor qat'iy ta'kidladi... Savdogar ketgach Murod Do'st o'zining birinchi va so'nggi muhabbati yodi bilan biroz ovundi-da, yuragi ham taqdir hukmiga sekin taslim bo'ldi.

Qadim va navqiron Buxoroning iste'dodli hikoya ustasi, Romitan farzandi Jo'ra Fozil ijodini kuzatar ekanmiz, mavzular olami keng. Hikoyalarida insonparvarlik, ona yurt tuyg'usi, tabiatga bo'lgan ayricha mehrni, muhim hayotiy muammolar yechimiga qaratilgan masalalar, o'zgacha yechimlarni ko'ramiz. Xususan, ushbu nashrdagi "Yetim sayyora" (Sharq yulduzi, №11, 2023. – B. 17-27) umri poyoniga yetib borayotgan cho'ponlik qilib ro'zg'or qurgan chol

to‘g‘risida so‘z boradi. U sakson yoshga qadar Buxorodan shimoli g‘arb tomondagi 150 chaqirim uzoqlikdagi Quljuqtov tog‘ tizmasi bag‘ridagi To‘sbuloq dashtlarida sakson yoshigacha, qariyb oltmis yil cho‘ponlik qilib katta o‘g‘liga suruvni topshirib ham tinchimadi. Bu mehnatga o‘rgangan bobo yana shu yoqlarga, qadrdon yaylovlariga talpinaverdi. Yoshlik chog‘lari, ayni uylangan yillarini, ayoli bo‘lmish Zeboxonni eslar ekan, bir haftalik kelinchakni ham qishloqda qoldirib yana qadrdon dashtlari, qo‘ylari sari shoshilganini yosh kelinchak esa “mendan qo‘y-u yaylovini aziz ko‘rdi”, deya tunlari yig‘laganini esladi. Shu kunlarda bir tush ko‘rdi-yu, umri oxirlab qolganini sezib yana dashtlari sari otlandi. Cholning farzandlari mehribon, o‘zi kabi mehnatkash edi, otasining rayiga qarshi bormay qishloqdan ancha uzoqdagi To‘sbuloqqa keltirib qo‘ydi. Chol o‘tgan umrini sarhisob qilar ekan, katta cho‘pon o‘tgan bobosi, otasini esladi. Bir hafta yursa hamki, bu cho‘l-u yaylovlarda yoqishga arz gulik cho‘l quvvati bo‘lgan saksovuldan darak topmadni. Bir vaqtlar saksovullar qatorlashib turishi, fayzli tabiatni esladi-yu, uning naqadar ochko‘z va beshavqatligi, tabiatning ona tabiat emas yetim tabiat ekanligi, shu yetim sayyora odamlar tomonidan mahv etilib, foydadan zarari ko‘p bo‘layotgani hamda o‘z qo‘li bilan “ona tabiat” deb atalmish dargohni halok etayotgani va shu bilan o‘z-o‘zini-da xarob qilayotganini o‘ylab insoniyatga qayg‘urdi. Buxoroda tog‘lar yo‘q deydiganlarni eslab entikdi. Nahotki inson o‘z yashab turgan zaminni bilmasa, deya Quljuqtov tog‘ tizmasi borligini o‘yladi. Shu o‘ylar silsilasida o‘zida ayri bir o‘zgarish sezal boshladi... Ha, u so‘nib borayotgandi. O‘g‘li kerak bo‘lar, deya berib yuborgan telefonidan uyiga qo‘ng‘iroq qilib rozi-rizolik so‘radi va ular yetib kelgunlaricha ruhi ona tabiat bilan birlashib, so‘nggi nafaslari dasht-u dalalarga singib ketdi.

Hikoya hayotiy muammolar va ularni yechimiga qaratilgan, mohirlik bilan bayon etilgan. Asar mazmunidan tabiatni sevish, asrash, tabiatga bo‘lgan mehr, e’tibor insoniyatning ayni o‘ziga bo‘lgan e’tibori ekanligi, umrning o‘tkinchiligi va undan faqat ezgu amallar qolishi anglashiladi.

“Sharq yulduzi”ning 2023-yil 11-sonida O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist Qulman Ochilning “**Bog‘ sayri**”(Sharq yulduzi, №11, 2023. – B. 45-54) hikoyasi insonparvarlik, samimiy do‘stlik va g‘amxo‘rlik sifatlarini o‘zida jamlaydi. Asarda turli xil sabalarga ko‘ra shifoxonaga tushib qolgan To‘ychi aka Eshdavlatov (u ham yozuvchi kabi qalam ahllaridan; ikki kuragining o‘rtasida “tuz koni”ochilgan) hamda san`atshunos, o‘qimagan kitobi, ko‘rmagan filmi, tomosha qilmagan spektakli bo‘lmagan haqiqiy san’at odami, shoirtabiat, dilkash inson Sobir aka obrazlari bosh qahramonlardir. Sobirjon yosh bo‘lishiga qaramay yurak xastaligiga uchragan, ko‘pi bilan bir-ikki marta qaltis harakat qilsa yoki o‘tirib tursa shu kifoya – yuragi to‘xtaydi, vassalom. Nihoyatda mehnatsevarligi sababidanmi yo oilasidagi kelishmovchiliklar, ro‘zg‘or tashvishlari yoki ayoli bilan tushunmovchiliklari sababmi, yurak dardini orttirib oldi. Sobir akaning hayotga bo‘lgan qiziqishi so‘ngani tanasida ham aks etib borayotgandi. Ammo To‘ychi aka uni hayot sari yangicha qarash bilan boqishga, hali umrining eng go‘zal onlari oldinda ekaniga, porloq kelajakka ishontirdi. Umuman yurish mumkin bo‘lmagan Sobirga har kuni oz-ozdan sayr qilishni odat qildirdi, dildan suhbatlar qurishdi. Nihoyatda ikki bemor “odam taftini odam oladi” degandek, bir-birlariga malham bo‘lishdi. Butunlay tuzalgan ikki do‘st To‘ychi akaning uyiga yo‘l olishdi. Chol-u kampir (To‘ychi aka va uning ayoli) yolg‘iz yashashardi. Shunday qilib, ular hayotini ota-bola bo‘lib bira davom ettirishni xohlashdi. Sobir ham shuni istadi. Chunki uyida uni kutadigan ayoli va farzandlari allaqachon qaynonasinikiga ketib qolgan. Shuning uchun o‘z uyi endi unga begona edi. Balki hayoti yana qayta o‘nglanar, axir inson taqdirini oldindan bilolmaydi. Hikoyada inson umid va maqsadsiz yashay olmasligi, uni yashashga undaydigan qandaydir ilinj bo‘lishi kerakligi hamda odam taftini odam olishi, yaxshi so‘z va amal hamisha inson umrini bezovchi qimmatli gavhar kabi ekanligi, umuman olganda, insonparvarlik, odamiylik tuyg‘ularining mudom barhayotligi ta’kidlanadi.

Yosh ijodkorlardan Roza Qubonovaning “**Armon**” (Sharq yulduzi, №11, 2023. – B. 107-109) nomli qisqa hikoyasi ikkinchi jahon urushi va uning xalq

boshiga, odamlar turmushi, tani-yu qalbiga solgan falokatlari haqida so‘zlaydi. Asarda Rahmon va Qorako‘zning pok muhabbatni, bu muhabbatning to‘y bilan davom etishiga to‘sinqinlik qilgan urush, jang maydonlarida halok bo‘lgan Rahmon, ukasi Ismoil, Qorako‘zning ham akalari shahid ketgani “ko‘pgal kelgan to‘y” sifatida qabul qilinadi. Qorako‘z esa yillar o‘tib ham ham Rahmonni kutib sog‘inch, umid bilan yashaydi va hayotdan erta ko‘z yumadi. Rahmoni tomon oshiqib, hurlar safiga qo‘shiladi.

Sobir O‘narning “**O‘lmaydigan odam**” (Sharq yulduzi, №12, 2023. – B. 4-7) hikoyasi hech o‘lmaydigandek ko‘rinadigan, saksondan oshsa-da, kuchg‘ayrat, shijoatga to‘la Bozorboy bobo haqida. U hayotga chanqoq va mehnatsevar edi, ammo qarilik sababidanmi yo boshqa bir vaj tufaylimi, kasallanib qolib, shundan so‘ng hayotdan umidini uzib, tarki dunyo qilgan kabi yashaydi. Uni taniydigan qarindoshlari, qadrdon do‘stlari bu holatdan tashvishga tushib uni oyoqqa turg‘izishga harakat qilishadi. Xususan, o‘rtoqlari Bardosh ota va Xoldor bobo do‘stlari sog‘ligidagi kabi kasalligida ham yolg‘izlatib qo‘yishmaydi. Kunda, kun ora xabar olishib, Bozorboy otani ko‘nglini ko‘tarmoqchi, hayotga bo‘lgan qiziqishini qaytarmochi bo‘lishadi. Yoshlik davrlarini eslatib do‘stlarini yana avvalgidek hayotsevar va jo‘shqin bo‘lishga erishishadi. Hikoyada inson umrininmg o‘tkinchiligi, kasallik ham bir mehmonligi, do‘stlar sadoqati, hayot qadri hayotiy misollar vositasida tasvirlab berilgan.

“Nur farzandi”, “Nur ato etilgan Nurota”, “Bir tabarruk inson yodi”, “Sog‘insam otajonim” kabi o‘nlab kitoblar muallifi Suyundiq Mustafoyevning yana bir ijod mahsuli bo‘lmish “O‘tmish hikoyalari” turkumuidan joy olgan “Uyat”, “Vasiyat” (Sharq yulduzi, №12, 2023. – B. 77-83) kabi ikki qisqa hikoya bizni xayolan Surxon vohasi, u yerning beg‘ubor va sodda odamlari sari yetaklaydi. Asar tilida Surxondaryo – Qashqadaryo shevasi sezilib turibdi. “Uyat” hikoyasi “kattalar”ning qishloqqa avtobus olib kelgandagi yig‘inda sodir bo‘lgan voqeadan boshlanadi. Bosh qahramon Chuchuk momo ko‘p yillar mobaynida kolxoz uchun mehnat qilib, oxirida hujjat (pasport yoki mehnat

daftarchasi) yo‘qligi bahonasida pensiya (qarilik nafaqasi) ololmayotganidan jig‘ibiyron bo‘lib o‘z oyog‘i bilan kelgan “kattalarga” murojaat qilmoqchi bo‘ladi. Ammo Imomnazar malim, Rashid hisobchi, Sodiq moldo‘xtir uni to‘xtatib qolishadi. Saman rais tog‘asining bevasi bo‘lgan momoni oxiri o‘zi hal qilib berish va’dasi bilan avrab tinchlantiradi. Chuchuk kampir (momo) so‘zlaridan uning uli (o‘g‘li) yo‘qligi, beva ekanligi; bir paytlar uyda xotin, ko‘chada erkak bo‘lib qora mehnat qilganligi, ammo hozirda boquvsiz, yolg‘iz qolganligi anglashiladi. Momo nomi bilan “chuchuk” – shirin, yosh, navnihol qiz, juvon edi. Ammo uni samarasiz mehnat ado qildi, tilini esa qarib qo‘lidan ish kelmay ojiz bo‘lib qolganida yolg‘izlatib qo‘ygan hukumat achchiq qildi. Nahotki inson shunchalik fidoiylik ortidan shunday adolatsizlikka uchrasa. Bu orada ko‘plar momoni uyatsizlik va urushqoqlikda ayblaydi. Lekin momo haq edi. Uning butun umr halol mehnat qilib qariganda kun ko‘rarman degan orzusi bir parcha qog‘oz sababli ko‘kkasovurilayotgan edi. Aslida bir parcha qog‘ozni inson umri, kuchi, mehnati va qadridan ustun qo‘ygan hukumat, mas‘ullar uyalsinlar. Bu holat nafaqat XX asrning, balki bugungi kunning ham dolzarb muammolaridan biri. Zero inson qadri har narsadan ustun, odamiylik esa muhim, juda muhim.

“Vasiyat”da sho‘xlik qilib qo‘ygan nevarasiga nasihatomuz so‘zlar aytayotgan, ma’lum ma’noda “bir kun men juda uzoqqa ketaman, bobo-momalar borsa kelmaydigan jayga” deya vasiyat qilayotgan boboning ko‘ngil kechinmalari, soddagina yosh nevaraning bu gaplarning ma’nosini chaqib-chaqolmay bobosiga zavq bilan tikilib turgan beg‘ubor holati tasviriga duch kelasiz. Hikoyada kitobxonni umrning o‘tkinchi ekanligiga, bu foniy dunyo boqiy hayotimiz oldida qiymatsizligiga ishoralar bobo va nevara misolida ochib beriladi.

Ushbu yarim yillikda tarjima hikoyalari ham nashr qilindi. Xususan, Lev Tolstoy qalamiga mansub “Ikki qariya”, Nikolay Il’inning “Ikki hikoya “Odamlarga ishonish kerak”, ozar ijodkori Anarning “Men, sen, u va telefon” kabi

hikoyalari ham keltirilgan, ammo bizning tahlilimiz tarjima asarlar ustida emasligi sababidan ularga aynan to‘xtalmadik.

Yuqorida tahlili amalga oshirilgan hikoyalar mavzu ko‘lami, g‘oyasi, qahramonlar tarkibi jihatidan turlicha. Ayrim hikoyalar uzoq tarixdan so‘ylasa, ayrimlari yaqin o‘tmishdan, sirli moziydan ertak so‘zlaydi. Yana boshqasida esa ayni yashab turgan zamonamizga xos xususiyatlar, voqeа-hodisalar bo‘y ko‘rsatadi. Tasvir usuli jihatdan ham g‘arbiy, ham sharqiy adabiyotga xos bo‘lgan ayrim belgilar ko‘zga tashlanadigan Nodirabegim Ibrohimovaning “Chorshanba uchun ko‘ylak”, Shahodat Ulug‘ning “Har kim hayotini yashasin” tarkibidagi ikki hikoyasi shunga yorqin misoldir.

Sodiqjon Inoyatov, Maxmud Rajab, Ma’mura To‘rayeva, Shodmon Sulaymon, Mohira Eshpo‘latova, Shahodat Ulug‘, Mehriniso Qurbonova, Lobarxon Rustamova, Nodirabegim Ibrohimova, Abduqayum Yo‘ldoshev, Abdulla Boboyorov, Jo‘ra Fozil, Qulman Ochil, Roza Qurbonova, Suyundiq Mustafayev, Sobir O‘nar qalamiga mansub hikoyalar mavzular olami va g‘oyaviy ko‘lami jihatdan bir-biriga sira o‘xshamaydi, har biri betakror. Ayrimlarida umuminsoniy, ayrimlarida g‘arb, boshqalarida sharq, gohi qorishiq (g‘arb-u sharq) adabiy-badiiy an‘analar kuzatilsa, ko‘pchiligidida o‘zbekona milliylik, urfodat hamda an‘analar tajassumi mayjud. Ushbu hikoyalarning har biri o‘zgacha olam. Sarhisob qiladigan bo‘lsak, 2023-yilning ikkinchi yarmida “Sharq yulduzi” sahifalarida yigirmaga yaqin uzun-qisqa, katta-yu kichik hikoyalar chop etilgan bo‘lib, ularning har bir hikoya mualliflarining o‘y-xayollari, dunyoqarashlari kabi turlichadir.